



ONKOLOGIK KASALLIKLAR, ULARNING KELIB CHIQISHI VA DAVOLASH USULLARI.

Normatova Sevinch Otabek qizi

Qo'qon univesiteti Andijon filiali Tibbiyot fakulteti Stomatologiya

Yo'nalishi 24-06 guruh talabasi

Email: sevinchxonnormatova@gmail.com

Tel: +9989889521702

Abduqodirov Shahbozbek

Davolash ishi yo'nalishi talabasi

Email: shahbozabduqodirov1407@gmail.com

Tel: +998 88 797 14 19

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17254739>

Anotatsiya

Ushbu maqolada onkologik kasalliklarning kelib chiqishi, rivojlanish omillari, ularning turlari va zamonaviy davolash usullari yoritilgan. Onkologik kasalliklar dunyo miqyosida keng tarqalgan bo'lib, o'limga olib keluvchi asosiy sabablar qatoriga kiradi. Maqolada saratonning etiologiyasi, genetik va tashqi muhit omillari, erta diagnostika ahamiyati hamda jarrohlik, kimyoterapiya, radioterapiya va immunoterapiya kabi davolash usullarining samaradorligi haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, profilaktika choralari va sog'lom turmush tarzining ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Onkologik kasalliklar, Saraton, Etiologiya, Diagnostika, Kimyoterapiya, Radioterapiya, Immunoterapiya, Profilaktika, Sog'lom turmush tarsi, Genetik omillar.

Annotation

This article discusses the origin, development factors, types, and modern treatment methods of oncological diseases. Cancer is one of the leading causes of death worldwide. The article provides information on the etiology of cancer, genetic and environmental factors, the importance of early diagnosis, and the effectiveness of treatments such as surgery, chemotherapy, radiotherapy, and immunotherapy. It also emphasizes preventive measures and the importance of a healthy lifestyle.

Keywords: Oncological diseases, Cancer, Etiology, Diagnosis, Chemotherapy, Radiotherapy, Immunotherapy, Prevention, Healthy lifestyle, Genetic factors.

Аннотация

В данной статье рассматриваются происхождение, факторы развития, виды и современные методы лечения онкологических заболеваний. Онкологические болезни являются одной из основных причин смертности





в мире. В статье представлены данные об этиологии рака, генетических и внешних факторах, значении ранней диагностики, а также об эффективности таких методов лечения, как хирургия, химиотерапия, лучевая терапия и иммунотерапия. Также подчёркивается важность профилактики и здорового образа жизни.

Ключевые слова: Онкологические заболевания, Рак, Этиология, Диагностика, Химиотерапия, Лучевая терапия, Иммунотерапия, Профилактика, Здоровый образ жизни, Генетические факторы.

Onkologiya (yun. onkos — shish, o'sma va ... logiya) — tibbiy-biologik fan; odam, hayvon va o'simliklarda onkogenezni nazariy, eksperimental va klinik jihatdan o'rganadi va o'simtalarni aniqlash, davolash hamda oldini olish usullarini ishlab chiqadi. Eksperimental va klinik O. farq qilinadi. O. 20-asrda eksperimental tibbiyot yutuqlari (o'sma hujayralarini ko'chirib o'tkazish, keyinchalik esa tashqaridan ta'sir etib, hayvonlarda o'smalar hosil qilish) asosida shakllandi. O'smalar insoniyatga juda kadimdan ma'lum (Gippokrat, K. Galen), unga oid dastlabki yozma manbalar miloddan avvalgi Misr, Xitoy va Hindistonda topilgan. O.ning rivojlanishida, ayniqsa, Gippokrat, Ibn Sino,


Onkologiya - bu turli xil neoplazmalarni (o'smalarni) tashxislash, davolash va oldini olishni o'rganadigan tibbiyot sohasidir. Barcha neoplazmalarni ikki guruhga bo'lish mumkin: xavfsiz va xavfli.

Xavfsiz- asta-sekin o'sib boradi, o'z membranasi bilan o'ralgan, qo'shni to'qimalar va organlarga o'smaydi va metastaz bermaydi. Ko'pincha ularni olib tashlashning hojati yo'q (agar yaqin atrofdagi to'qimalarning siqilishi tufayli tana funktsiyalarining buzilishi bo'lmasa), ularni muntazam ravishda kuzatib boring. **Xavfli**- o'smalar agressiv infiltrativ o'sishga, atrofdagi to'qimalarga urug'lanishga va metastazga moyil.

Onkologik kasallikni kelib chiqish sabablari

Kasallikni kelib chiqish sababi ekzogen (tashqi) omillar ya'ni, kimyoviy, fizik, biologik va endogen (ichki omillar), ya'ni, organizmda kanserogen (rak keltirib chiqaruvchi) moddalarni sintezlanishi, gormonal muvozanatning buzilishiga bog'liq.

Olimlarni ta'kidlashicha, yana boshqa omillar ham borki, bularga noto'g'ri ovqatlanish, buning natijasida 35 foiz, tamaki chekish natijasida 30 foiz, atrof — muhitning ifloslanishi 3 foiz, viruslarning organizmga tushishidan 10 foiz, nasldan-naslga o'tish borasida 5-10 foiz, quyoshdan keladigan ultrabinafsha nurlarning salbiy ta'siri natijasida 5 foiz, ionli nurlanish natijasida 3 foiz, va





alkogolli ichimliklar iste'mol qilish natijasida 2 foiz, onkologik kasalliklar kelib chiqishi isbotlangan.

Onkologiya sohasida dolzarb muammo – bu keng kamrovli profilaktik ishlar va kasallikni erta bosqichlarda aniqlashdir. Buning uchun joylarda shifokorlarni onkologik hushyorligini oshirish, tibbiyot xodimlari aholi o'rtasida o'z vaqtida chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklar tashkil qilishi, skrining tekshiruvlarini barcha kasalliklar bo'yicha olib borish va ayniqsa, fuqarolarning tibbiy madaniyatini oshirishi lozim.

Filialimizda sut bezi saratoni kasalligining oldini olish maqsadida ayollarga muhim malumotlar va saraton kasalligining 21 ta asosiy belgisi, uning profilaktikasi haqida eslatma varaqalari chiqarildi va shahar, tuman tibbiyot birlashmalariga, QVP larga tarqatildi. Mutaxassislarimiz saraton kasalligini tekshirish, uni davolash va oldini olish borasida, dori-darmonlar, yangi tibbiy asbob-uskunalar to'g'risida videoroliklarni fuqarolarga taqdim etmoqda.


Hozirgi kunda filialimizda 7-ta bo'lim faoliyat ko'rsatib, laborator tekshiruvlar asosida, tibbiy uskunalar (kompyuter tomografiyasi, rentgen, mammografiya, ultratovush tekshiruvlari)ga asoslanib bemorga to'g'ri tashxis qo'yilib, aholiga ixtisoslashtirilgan onkologik xizmat ko'rsatib kelinmokda. Xastalarga zamonaviy davo muolajalari o'tkazilmoqda.

Saraton (lotincha: *cancer* — „qisqichbaqa“), deb hujayralarning atipik o'sishiga aytiladi. Atipik o'sish bunday hujayralar qarishi yoki jarohatlanishiga qaramay cheksiz ko'payishi bilan ifodalanadi. Sog'lom hujayradan farqli o'laroq, bunday hujayralarda tabiiy o'lim holati o'chirilgan, ya'ni ular to'xtovsiz bo'linish jarayonida bo'ladi.

Saraton mutatsiyaga uchragan hujayralarga qarab asosiy 4 guruhga bo'linadi. Karsinoma — epitelial to'qimalarda, sarkoma — mezenxemal to'qimalarda, leykemiya — qon ishlab chiqaruvchi ilikda, limfoma va miyeloma — immunitet tizimi hujayralarida va bosh miya hujayralarida atipik rivojlanishni anglatadi. Tabiiyki saratonning „suyuq“ turlari o'sma paydo qilmaydi.

Saraton badanda joylashishiga qarab ham tasniflanishi mumkin, ya'ni ko'krak bezi saratoni, o'pka saratoni va hokazo^[1].

Tamaki iste'moli saraton kasalligida o'limning taxminan 22% sababchisi hisoblanadi^[2]. Shuningdek 10% semizlik, noto'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollikning yetishmasligi yoki spirtli ichimliklarni haddan tashqari iste'mol qilish ham saraton kasalligiga olib keladi^{[2][3][4]}. O'ziga xos viruslar, bakteriyalar va parazitlar bilan infeksiya butun dunyo bo'ylab saraton kasalliklarining taxminan 16-18% ni keltirib chiqaradigan ekologik omil hisoblanadi^[5]. Yuqumli





viruslarga *Helicobacter pylori*, gepatit B, gepatit C, inson papilloma virusi infeksiyasi, Epstein-Barr virusi, Inson T-limfotrop virusi, Kaposi sarkomasi bilan bog'liq herpes virusi va Merkel hujayrali polioma virus kiradi. Odamning immunitet tanqisligi virusi (OIV) to'g'ridan-to'g'ri saraton kasalligini keltirib chiqarmaydi, lekin u immunitet tanqisligini keltirib chiqaradi, bu boshqa infeksiyalar tufayli xavfni, ba'zan bir necha ming martagacha (Kaposi sarkomasi holatida) oshirishi mumkin. Muhimi, gepatit B va inson papilloma virusiga qarshi emlash saraton xavfini deyarli yo'q qiladi. Atrof-muhit omillari, hujayra genlarini o'zgartirishga harakat qiladi^[6]. Odatda, saraton rivojlanishidan oldin ko'plab genetik o'zgarishlar yuzaga keladi^[6]. Saraton kasalliklarining taxminan 5-10% irsiy genetik nuqsonlarga bog'liq^[7]. Saraton ma'lum belgilar va alomatlar yoki turli xil testlari orqali aniqlanishi mumkin^[8]. Keyinchalik tibbiy ko'rikdan o'tkazish orqali qo'shimcha tekshiriladi va biopsiya bilan tasdiqlanadi^[9]. Chekmaslik, sog'lom vaznni saqlash, spirtli ichimliklarni iste'mol qilishni cheklash, ko'p miqdorda sabzavot, mevalar va donli maxsulotlarni iste'mol qilish, ayrim yuqumli kasalliklarga qarshi emlash, qayta ishlangan go'sht iste'molini cheklash orqali ayrim saraton kasalliklarini rivojlanish xavfini kamaytirish mumkin. Ko'krak bezi saratoni ko'pincha radiatsiya terapiyasi, jarrohlik, kimyoterapiya va maqsadli terapiyaning kombinatsiyasi bilan davolanadi^{[10][11]}. Og'riq va simptomlarni boshqarish parvarishning muhim qismidir^[10]. Palliativ yordam kasallik rivojlangan odamlarda muhim ahamiyatga ega^[10]. Omon qolish ehtimoli saraton turiga va davolanishning boshida kasallikning darajasiga bog'liq^[12]. 15 yoshgacha bo'lgan bolalarda tashxis qo'yilganda, rivojlangan dunyoda besh yillik omon qolish darajasi o'rtacha 80% ni tashkil qiladi^[13]. Qo'shma Shtatlardagi saraton kasalligi uchun o'rtacha besh yillik omon qolish darajasi barcha yoshdagilar uchun 66% ni tashkil qiladi.

Davolash usullari

- JARROHLIK AMALIYOTI BO'LIMI
- ABDOMINAL ONKOXIRURGIYA BO'LIMI
- ANESTEZIOLOGIYA – REANIMASIYA VA INTENSIV TERAPIYA BOLIMI
- KOLOPROKTOLOGIYA BO'LIMI
- RADIOTHERAPY BO'LIMI
- ONKOMAMMOLOGIYA BOLIMI
- BOSH VA BO'YIN O'SMALARI BO'LIMI
- ONKOGINEKOLOGIYA BO'LIMI
- ONKOOFTALMOLOGIYA BO'LIMI





- TAYANCH-HARAKAT TIZIMINING O'SMALARI BO'LIMI
- KO'KRAK JARROHLIK BO'LIMI
- UROLOGIYA BO'LIMI
- KEMOTERAPIYA BO'LIMI
- EXTRACORPOREAL CHEMOIMMUNOTHERAPY BO'LIMI
- QABUL BO'LIMI


JARROHLIK AMALIYOTI BO'LIMI

Jarrohlik amaliyoti bo'limi Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi tarkibida 2000 yil o'z ish faoliyatini boshlagan. 2003 yildan to 2015 yilgacha RIO va RIATM jarrohlik amaliyoti bo'limiga Boboyev A.K rahbarlik qilgan. Xozirgi vaqtda bo'limni G.A Abdikarimov boshqarib kelmoqda. Jarrohlik bo'limi yuqori texnologik, kombinirlashgan, kengaytirilgan jarrohlik amaliyotlariga ixtisoslashtirilgan 9 jarrohlik xonalaridan iborat. Bo'lim muassasaning yuragi bo'lib, zamonaviy asbob-uskunalar bilan to'liq ta'minlangan. Markaz jarrohlari onkologiya sohasida ko'p yillik tajribaga egadirlar. Yildan yilga jarrohlik amaliyotlar soni ortib bormoqda. Agar 2000 yilda markazdagi amaliyotlar soni 2000 ta bo'lsa, xozirgi kunda bu ko'rsatgich 2 baravar oshgan. Zamonaviy jarrohlik amaliyotlari uchun jarrohlik asbob-uskunalar, keng tanlovdagi tikish apparatlari qo'llaniladi. Jarrohlarning asosiy yordamchilari yuqori malakali jarrohlik xamshiralardir. Xamshiralar jamoasiga Azizova Aziza Adilovna rahbarlik qiladilar. Bo'limda katta avlod qoldirgan an'analarga sodiq qolinib, yosh avlodga bu xaqida o'rgatib boriladi. Markazda bajarilayotgan jarrohlik amaliyotlari va ulardan keying davrda kuzatiladigan asoratlar ko'p xollarda o'z ishining fidoyisi bo'lgan, yuqori malakali xamshiralarga so'zsiz bog'liq.

SARATON KASALLIGINI OLDINI OLIISH 12 TA TAVSIYA

Saraton kasalligi inson salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan jiddiy tibbiy va ijtimoiy muammodir. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, bunday kasalliklar bilan kasallanish yildan-yilga ko'payib bormoqda. Dunyoda bir millionga yaqin asosiy saraton kasalligi mavjud. Ko'krak bezi saratoni eng keng tarqalgan saraton hisoblanadi. Keyingi eng keng tarqalgan oshqozon, o'pka va bachadon bo'yni saratoni.

Malign neoplazmalarni davolash qiyin bo'lsa ham, ularning oldini olish mumkin. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining Xalqaro saraton tadqiqotlari agentligi (IARC) saraton kasalligining oldini olishning 12 usulini e'lon qildi. Bular:





1. Chekmang, tamaki har qanday shaklidan foydalanmang.
2. Uyingizni va ish joyingizni tamaki tutunidan saqlang.
3. Tana vazningizni normal chegaralarda saqlash uchun harakat qiling.
4. Kundalik hayotda jismoniy faol bo'ling. Butun kunni o'tirish bilan o'tkazmang.
5. Sog'lom ovqatlanish tamoyillariga amal qiling:
don, dukkakli ekinlar, sabzavot va mevalarni ko'p iste'mol qiling, yog'li ovqatlar, shakarni cheklang;
Iloji boricha qayta ishlangan go'sht mahsulotlari, qizil go'sht va sho'r ovqatlardan saqlaning.
6. Spirtli ichimliklar ichmang.
7. Quyoshda uzoq turmang, ayniqsa bolalarni quyoshdan saqlang.
8. Agar siz kimyo sanoatida ishlasangiz, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish sharti bilan o'zingizni kanserogen moddalardan himoya qiling.
9. Agar siz tog'larda yoki radiatsiya xavfi bo'lgan joylarda yashasangiz, radon nurlanishining mavjudligini aniqlang. Yuqori radon miqdorini kamaytirishga harakat qiling.
10. Ayollar uchun:
Emizish onaning saraton xavfini kamaytiradi. Iloji bo'lsa, emizish kerak.
11. Farzandlaringiz emlash dasturida qatnashishini ta'minlang:
Gepatit B (chaqaloqlar uchun)
Inson papillomavirusi (HPV) (o'spirin qizlar uchun).
12. Ko'krak, bachadon bo'yni, yo'g'on ichak va oshqozon saratonining oldini olish bo'yicha skrining dasturlarida ishtirok etish.

Mamlakatimizda aholi o'rtasida saraton kasalligini oldini olish uchun zamonaviy sharoitlar yaratilgan va bu jarayon doimiy ravishda takomillashtirilmoqda.

Prezidentning «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasida onkologik xizmatni yanada rivojlantirish va onkologik yordamni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi farmoni asosida onkologik kasalliklar profilaktikasini kuchaytirish, skrining va yuqori texnologiyali tekshirish usullarini takomillashtirish bo'yicha muhim loyihalar amalga oshirilmoqda.

Xulosa

Onkologik kasalliklar zamonaviy tibbiyotning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib, ularning erta aniqlanishi va samarali davolash usullarini ishlab chiqish inson salomatligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kasalliklarning kelib chiqishida genetik moyillik, ekologik omillar, noto'g'ri turmush tarzi kabi omillar





asosiy rol o'ynaydi. Hozirgi kunda onkologik kasalliklarni davolashda kompleks yondashuv — jarrohlik, kimyoterapiya, radioterapiya va immunoterapiyaning qo'shma qo'llanilishi yuqori samaradorlikni ta'minlamoqda. Biroq eng muhim omil bu – kasallikning oldini olish, sog'lom turmush tarziga amal qilish va profilaktik tekshiruvlardan muntazam o'tishdir. Shu bois, keng jamoatchilikning onkologik kasalliklar to'g'risidagi xabardorligini oshirish va erta diagnostika tizimini takomillashtirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdug'afforov A.A. Onkologiya asoslari. – Toshkent: O'zbekiston tibbiyot nashriyoti, 2020. – 312 b.
2. Xudoyberganov Sh.R., Qodirov B.B. Saraton kasalliklari: klinikasi va davolash usullari. – Toshkent: Tibbiyot, 2018. – 278 b.
3. Toirov A.T., Karimov J.J. Tibbiy onkologiya. – Toshkent: Oliy ta'lim, 2019. – 356 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. Onkologik kasalliklarni erta aniqlash va profilaktika bo'yicha klinik qo'llanma. – Toshkent, 2021. – 54 b.
5. Soliyev A.S. Immunoterapiya va zamonaviy davolash usullari. – Toshkent: Innovatsiya, 2022. – 198 b.
6. Tursunov M.T. Tibbiyot bioetikasida onkologik bemorlar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari. // Tibbiyot va amaliyot jurnali, 2020, №4. – B. 42–46.
7. Karimova Z.M. Saraton kasalliklari epidemiologiyasi va sog'lom turmush tarzi. // Sog'liqni saqlash muammolari, 2021, №2. – B. 15–19.

